

**ABU SA'D ABDUMALIK IBN MUHAMMAD AL-XARGUSHIY AN-NISHOPURIY
HAYOTI VA ILMIY-MA'NAVIY MEROSI****Yakubov Azimjon Akmalovich**

BuxDu, Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrası doktoranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18966693>

Annotatsiya. Mazkur maqolada hijriy IV–V asrlarda yashab ijod qilgan mashhur muhaddis, faqih va tasavvuf olimi Abu Sa'd Abdu al-Malik al-Khargushi an-Nishopuriyning hayoti, ilmiy-ma'naviy faoliyati hamda boy merosi tahlil qilingan. Maqolada olimning ilmiy shakllanishi, ustozlari, ilmiy safarlari va tasavvuf ta'limoti rivojiga qo'shgan hissasi manbashunoslik asosida yoritilgan. Xususan, uning "Tahzib al-asror" asari tasavvufiy axloq, ruhiy tarbiya va ma'naviy poklanish masalalarini yorituvchi muhim manba sifatida ilmiy jihatdan baholangan. Shuningdek, o'rta asr islom allomalari tomonidan al-Xargushiyning shaxsiyati va ilmiy maqomiga berilgan baholar tahlil qilinib, uning islom sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi o'rni asoslab berilgan. Maqola natijalari tasavvuf, islom axloqi va diniy-ma'naviy merosni o'rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Abu Sa'd al-Xargushiy, Nishapur ulamolari, tasavvuf ta'limoti, zohidlik, islom axloqi, "Tahzib al-asror", ma'naviy tarbiya, hadis ilmi, fiqh, islom ilmiy merosi.

**LIFE AND SCHOLARLY–SPIRITUAL HERITAGE OF ABU SA'D ABDUMALIK IBN
MUHAMMAD AL-KHARGUSHI AN-NISHAPURI**

Abstract. This article examines the life, scholarly and spiritual activities, and rich intellectual legacy of the renowned hadith scholar, jurist, and Sufi thinker Abu Sa'd Abdumalik ibn Muhammad al-Khargushi an-Nishapuri, who lived and worked during the 4th–5th centuries AH. The study highlights the scholar's intellectual formation, teachers, scholarly journeys, and his significant contribution to the development of Sufi teachings based on classical sources.

Particular attention is given to his work *Tahzib al-Asrar*, which is evaluated as an important source addressing Sufi ethics, spiritual education, and moral purification. In addition, the article analyzes assessments of al-Khargushi's personality and scholarly status by prominent medieval Islamic scholars, substantiating his role in the development of Islamic civilization. The findings of the study are of considerable academic value for research in Sufism, Islamic ethics, and religious–spiritual heritage.

Keywords: Abu Sa'd al-Khargushi; Nishapur scholars; Sufi teachings; asceticism; Islamic ethics; *Tahzib al-Asrar*; spiritual education; Hadith studies; fiqh; Islamic intellectual heritage.

Islom sivilizatsiyasi tarixida hijriy IV–V asrlar ilm-fan, ma'naviyat va tasavvuf tafakkuri jadal rivojlangan muhim davrlardan biri hisoblanadi. Bu davrda hadis, fiqh va tasavvuf ilmlarini o'zida mujassamlashtirgan ko'plab yetuk allomalar yetishib chiqqan bo'lib, ular islomiy ilmiy an'ananing shakllanishi va taraqqiyotida muhim o'rin egallagan. Ana shunday zabardast mutafakkir va ma'naviy yetuk zotlardan biri Abu Sa'd Abdumalik ibn Muhammad al-Xargushiy an-Nishopuriydir. Manbalarda u «al-Xargushiy» nisbasi bilan mashhur bo'lib, bu nisba Nishopurdagi Xargush mahallasiga nisbatan berilgani qayd etiladi [2, 5].

Al-Xargushiy ilmiy faoliyatida shariat ilmlari bilan bir qatorda tasavvufiy-ma'naviy tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratgan. U zohidlik, ixlos, taqvo va qalb pokligi g'oyalari targ'ib etib, tasavvuf ta'limotining axloqiy-ruhiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Ayniqsa, uning “Tahzib al-asror” asari tasavvufiy axloq, ruhiy kamolot va shaxs ma’naviy yetukligini shakllantirish masalalarini yorituvchi muhim manbalardan biri sifatida e’tirof etiladi. Bugungi globallashuv va ma’naviy qadriyatlar inqirozi sharoitida al-Xargushiyning ilmiy-ma’naviy merosini o’rganish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Uning asarlarida ilgari surilgan axloqiy-me’yoriy qarashlar, ruhiy tarbiya konsepsiyalari zamonaviy jamiyatda inson ma’naviyatini yuksaltirish, komil shaxsni tarbiyalash jarayonida dolzarb hisoblanadi.

Abu Sa’d Abdumalik ibn Muhammad al-Xargushiyy Nishopurda yashab ijod qilgan mashhur ulamolardan biri bo’lgan. Manbalarda uning tug’ilgan sanasi aniq keltirilmagan, biroq aksariyat biografik manbalarda uning 407-hijriy (1016-milodiy) yili vafot etgani qayd etilgan [3, 4]. U yoshligidan ilm talab qilishga kirishib, fiqh ilmini chuqur o’rgangan. Shu bilan birga, u zohidlik va taqvo yo’lini tanlab, tasavvuf ahli bilan yaqin aloqada bo’lgan. Manbalarda ta’kidlanishicha, u zohidlar va ixlosli solih kishilar bilan suhbatda bo’lib, keyinchalik o’sha zohidlar silsilasining munosib davomchisiga aylangan [4, 5].

Al-Xargushiyy Nishopurda qator mashhur ulamolardan hadis ilmini o’rgangan. Uning ustozlari qatorida Abu Muhammad Yahyo ibn Mansur al-Qoziy, Abu Amr ibn Najid, Abu Ali ar-Rifo’ al-Haraviy hamda Abu Ahmad Muhammad ibn Muhammad al-Masarjisiy kabi olimlar zikr qilinadi [4]. Shuningdek, u ilm talabida Iroq va Hijozga safar qilgan. Hijozda, xususan Makka shahrida bir muddat istiqomat qilib, u yerdagi zohid va solih kishilar bilan suhbatda bo’lgan hamda hadis rivoyat qilgan [5].

Al-Xargushiyy shariat ilmlarining turli sohalarida qator asarlar yozgan. Manbalarda uning quyidagi asarlari tilga olinadi: “Tafsir al-Qur’on al-kabir”, “az-Zuhd”, “Daloyil an-Nubuvva”, “al-Bashora va an-Nizora”, “Siyar al-ibod va az-zuhhod”, “Sharaf al-Mustafo”, “Tahzib al-asror”. Ushbu asarlar tasavvuf, axloq va islom ma’naviyatini o’rganishda muhim manbalar hisoblanadi [6, 10].

Al-Xargushiyy haqida bir qator mashhur ulamolar ijobiy fikr bildirgan. Al-Xatib al-Bag’dodiy uni ishonchli va taqvodor olim sifatida baholagan [7]. As-Subkiy esa uni faqih, zohid va din imomlaridan biri sifatida ta’riflaydi [8]. Muhaddis al-Hokim an-Nishopuriy al-Xargushiyni ilm, zohidlik va tavoze borasida yetuk olimlardan biri deb baholagan [9].

Al-Xargushiyning eng muhim asarlaridan biri “Tahzib al-asror” hisoblanadi. Ushbu asarda tasavvufiy axloq, ma’naviy tarbiya, zohidlik, ixlos va Allohga muhabbat kabi mavzular keng yoritilgan. Asarning qadimiy qo’lyozmalaridan biri hijriy 608-yilda ko’chirilgan bo’lib, u hozirgi kunda Abu-Dabidagi Milliy kutubxona qo’lyozmalar fondida saqlanadi [10].

Xulosa qilib aytganda, Abu Sa’d Abdumalik ibn Muhammad al-Xargushiyy an-Nishopuriy islom ilmlari tarixida muhim o’rin tutgan allomalardan biridir. U tasavvuf, hadis va fiqh ilmlarida samarali faoliyat yuritib, o’z davrining ma’naviy hayotiga sezilarli ta’sir ko’rsatgan.

Uning ilmiy merosi, ayniqsa “Tahzib al-asror” asari tasavvuf ta’limoti va islom axloqini o’rganishda muhim manba bo’lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brockelmann C. *Tārīkh al-Adab al-‘Arabī*. Qohira, 1959.
2. Ibn ‘Asākir. *Tārīkh Madīnat Dimashq*. Bayrut, 1995.
3. Subkī Taj ad-Dīn. *Ṭabaqāt ash-Shāfi‘iyya al-Kubrā*. Bayrut, 1992.
4. Zahabī. *Siyar A‘lām an-Nubalā’*. Bayrut, 1985.
5. Hākim an-Naysābūrī. *Tārīkh Naysābūr*. Haydarobod, 1965.

6. al-Xargushī. *Tahzīb al-Asrār*. Qo‘lyozma nusxa, hijriy 608-yil.
7. Khaṭīb al-Baghdādī. *Tārīkh Baghdād*. Bayrut, 2002.
8. Subkī Tāj ad-Dīn. *Ṭabaqāt ash-Shāfi‘iyya*. Bayrut, 1983.
9. Ḥākim an-Naysābūrī. *Ma‘rifat ‘Ulūm al-Ḥadīth*. Bayrut, 1977.
10. Brockelmann C. *History of Arabic Literature*. Leiden, 1943.